

UZUMNING KISHMISHBOP NAVLARINING FENOLOGIK FAZALARINING O'TISHIGA O'STIRUVCHI MODDALARNING BOG'LIQLIGI.

K.S. Sultonov1., P.E.Egamberdiyev2., I.S. Jo'lbekov3.

Toshkent davlat agrar universiteti1, Guliston davlat universiteti2,3.

Annotatsiya. Ushbu maqolada uzumning kishmishbop navlariga o'stiruvchi moddalarni qo'llashning fenologik fazalarga ta'siri o'rganilganda eng yaxshi natija o'stiruvchi moddalarni bir marta uzumzorda qo'llash uzumlarning erta yetilishiga yoki o'stiruvchi modda ikkinchi marotaba qo'llanilsa uzum g'ujumlari kech pishishigp sabab bo'lishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: uzum boshi, g'ujum, fenologik faza, o'suv davri, o'stiruvchi moddalar, kishmishbop.

Аннотация. В данной статье при изучении влияния ростовых веществ на фенологические фазы сортов винограда лучшим результатом является то, что первое внесение ростовых веществ на винограднике приводит к раннему созреванию винограда, либо если ростовое вещество применяется во второй раз виноград созревает поздно.

Ключевые слова: головка винограда, гроздь, фенологическая фаза, период роста, вегетационные вещества, кшмшшшбшп.

Abstract. In this article, when studying the effect of growth substances on the phenological phases of grape varieties, the best result is that the first application of the growth substances in the vineyard leads to early ripening of the grapes, or if the growth substance is applied a second time, the grapes ripen late.

Key words: grape head, cluster, phenological phase, growth period, growing substances, kishmishbop.

Kirish. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda uzumning kishmishbop va sharopbop navlarida tokning tik simbag'az usulida yetishtirish orqali uzum hosildorligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, uzumning kishmishbop navlarini yetishtirishda ustiruvchi moddalrning uzum hosildorligi va sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmagan. O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 30-maqsadida «qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobarga oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish» hamda tumanlarni aniq mahsulot turini yetishtirishga, jumladan bog'dorchilikka 46 ta, uzumchilikka 48 ta tumanni ixtisoslashtirish, ushbu tumanlarda plantatsiyali usulda 25 ming gektar mevali bog', 50 ming gektar uzumzor ekilishini ta'minlash muhim vazifa qilib belgilangan. Bu borada uzumning kishmishbop navlarini istiqbolli o'stirish usullarini tanlash, uzumning kishmishbop navlariga o'stiruvchi moddalarni qo'llash usullari, fenologik fazalarning o'tishiga bog'liqligi va me'yorlarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini kengaytirish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida uzumning Kishmish cheryy navi, Kishmish belyy ovalnyy va Kishmish sogdiana navlari fenologik fazalarini o'tish muddatlari hamda o'stiruvchi moddalar me'yorlari xizmat qilgan

Tadqiqot materiallari va uslubi. Tajribalar X.Ch.Bo'riev, N.Sh.Enileev va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan «Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan

tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi» (2014) [1.], M.A.Лазаревскийнинг «Методы ботанического описания и агробиологического изучения сортов винограда» (1946), Витковского В.Л. Изучение сортов винограда (методические указания) (1988), nomli uslubiy adabiyotlarida keltirilgan tavsiya va uslublar bo'yicha o'tkazilgan [2]. Tadqiqot natijalarining statistik ta'limi «Excel 2010» va «Statistica 7.0 for Windows» kompyuter dasturlarida, 0,95% ishonchlik oraliqi bilan B.A.Доспехов k'rsatgan ushbu b'ycha hisoblangan [3].

Tadqiqot natijalari. Tokning yillik rivojlanish davri o'suv va tinim davrini o'z ichiga oladi [5]. Tok o'simligining o'suv davri 6 ta jarayondan iborat bo'lib ular quyidagilardir: birinchi faza erta bahorda haroratning ko'tarilishi bilan shira harakatini boshlanishi, (bu tokda shira harakati boshlanib, kurtaklarning bo'rtishi davrigacha, ya'ni kurtaklar ko'ringunga qadar davom etadi); ikkinchi faza tok tuplarida kurtaklar yozilgandan to gullash boshlanguncha davom etadi (bu davrda tok tuplarini simbag'azlarga bog'lash ishlari amalga oshiriladi); uchinchi faza gullash hisoblanib (bu davr juda muhim hisoblanib, homtok qilish, tok qator oralarida agrotexnik tadbirlarni bajarib bo'lmaydi chunki gultoj qalpoqchalarining to'kilishi darajasi yuqori bo'ladi, bu faza gullashdan to gullar to'kilgancha davom etadi); to'rtinchi faza g'ujumlarning tugishi va novdalarning o'sishi hisoblanib (bu davrda tok tuplari xomtok ishlari va sug'orish ishlari amalga oshirilib hosildorlikka e'tibor beriladi, g'ujumlarning paydo bo'lishidan boshlanib, g'ujumlarning pishishini boshlanish davrigacha davom etadi); beshinchi faza uzum g'ujumlarning pishishi (bu davrda barcha agrotexnik tadbirlar hamda tok tuplriga kimyoviy ishlov berish ishlari yakunlangan bo'lishi kerak); va barglarning to'kilishi (xazonrezlik) Sh. Temurov [4; 3–110-b.].

1-jadval

***Uzumning kishmishbop navlarini vegetatsiya fazalarining o'tish muddatlari
(1-tajriba natijalari)(2021-2023 yillar)***

T/r	Variantlar	Kurtaklarni ng bo'rtishi	Gullash	G'ujumlar ning to'liq pishishi	Vegetatsiy a davomiylig i, kun
Kishmish cho'rniy					
1	Ishlov berilmagan (nazorat)	20/IV	20/V	14/VIII	117
2	Gibberelin ИКC 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l , Sitogummat 200 mg/l , Fitovak 100 mg/l , Magniy 50 mg/l . (1) Gullashdan oldin	20/IV	20/V	22/VIII	125
3	Gibberelin ИКC 25 mg/l , Bornaya kislota 50 mg/l , Sitogummat 200 mg/l ,Fitovak 100 mg/l , Magniy 50 mg/l . (2) g'ujumlar tarkibiga suv to'plash davrida	20/IV	20/V	16/ IX	149
Kishmish beliy ovalniy					
1	Ishlov berilmagan (nazorat)	17/IV	15/V	28/VIII	134

2	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (1) Gullashdan oldin	17/IV	17/V	4/X	140
3	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (2) g'ujumlar tarkibiga suv to'plash davrida	17/IV	17/V	9/X	145
Kishmish Sogdiyana					
1	Ishlov berilmagan (nazorat)	21/IV	15/V	14/VIII	116
2	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (1) Gullashdan oldin	21/IV	16/V	19/VIII	121
3	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (2) g'ujumlar tarkibiga suv to'plash davrida	21/IV	16/V	4/ IX	135
F1 qora kishmish					
1	Ishlov berilmagan (nazorat)	21/IV	20/V	6/IX	127
2	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (1) Gullashdan oldin	21/IV	22/V	9/IX	130
3	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (2) g'ujumlar tarkibiga suv to'plash davrida	21/IV	22/V	13/IX	134
F1 oq kishmish					
1	Ishlov berilmagan (nazorat)	21/IV	15/V	3/IX	124
2	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (1) Gullashdan oldin	21/IV	14/V	7/IX	127
3	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l . (2) g'ujumlar tarkibiga suv to'plash davrida	21/IV	14/V	10/IX	130
F1 pushti kishmish					

1	Ishlov berilmagan (nazorat)	21/IV	17/V	6/IX	126
2	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l. (1) Gullashdan oldin	21/IV	22/ V	8/IX	128
3	Gibberelin <i>IKC</i> 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l. (2) g'ujumlar tarkibiga suv to'plash davrida	21/IV	22/ V	12/IX	132

Uzumning kshnishbop navlari birinchi tajribada rivojlanishining har bir asosiy fazalari boshlanishini aniq tasavvur qilish uchun jamlangan jadval keltirildi [6] (1-jadvalga qarang). Kurtaklarning bo'rta boshlashidan g'ujumlarning to'liq pishishigacha bo'lgan vegetatsiya davrining davomiyligi Kishmish chery navida ishlov berilmagan (nazorat), Gibberellin IKS 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l. (1) gullashdan oldin hamda Gibberellin IKS 25 mg/l, Bornaya kislota 50 mg/l, Sitogummat 200 mg/l, Fitovak 100 mg/l, Magniy 50 mg/l. (2) g'ujumlar tarkibiga suv to'plash davrida qo'llanilganda 117-149 kunni, Kishmish belы ovalny navida 134-145 kun, Kishmish Sogdiana navida 116-135 kunni, F1 Qora kishmish navida 127-134 kun, F1 Oq kishmish 124-130 kun hamda F1 Pushti Kishmish navida 126-132 kunni tashkil etishi aniqlandi. Uzunning kishmishbop navlarini yetishtirganda har bir asosiy fazalari boshlanishini aniq tasavvur qilish uchun jadval keltirildi.

Xulosa. Uzunning kishmishbop navlarini fenologik fazalarining o'tish muddatlariga o'stiruvchi moddalarning ta'siri o'rganilganda Kishmish chery, Kishmish belы ovalny, Kishmish Sogdiana, F1 Qora kishmish, F1 Oq kishmish hamda F1 Pushti Kishmish navlarida nazorat variantga nisbatan uchnchi variantda 32, 11, 19, 17, 6, 6 kun kech bo'lishi kuzatildi.

Uzumdan mayiz tayyorlash uchun o'stiruvchi moddalarni bir marota qo'llash uzumni hosildorligini oshirada va quritish uchun erta yetiladi. O'stiruvchi moddalarni ikki marotaba qo'llasa uzum g'ujumini pishishi muddatini ozroq kechiktiradi va uzum hosili sifatini yaxshilaydi, lekin mayiz tayyorlashga ozroq kech bo'lishi o'rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Buriyev X.Ch., Yenileyev N.Sh. va b. Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi. – T., 2014. – 2-51 b.
2. Vitkovskogo V.L Изучение сортов винограда (методические указания).– Leningrad.–1988.–S. 58
3. Dospexov B.A. Методика полевого опыта. – М.: Agropromizdat. - 1985. – S. 311-320.
4. Темуров III. «Узумчилик» маъруза матнлари Тошкент –2004.–45-50-6
5. Fayziyev J.N. O'zbekiston sharoitida uzumning urug'siz navlari hosildorligi va sifatini oshirish texnologiyasini ilmiy asoslash.// Aftorefarat. – Toshkent, 2020 –B. 5-18.
6. Egamberdiyev P.E. Uzunning xo'raki navlarini voish usulida yetishtirishda kurtak yuklamalarini uzum hosildorligi va sifatiga ta'siri. – disertatsiya. – Toshkent, 2023. –

B. 52-85.

7. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУҒОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТКИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
8. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
9. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G 'O 'ZANI SUG 'ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
10. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
11. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
12. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
13. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
14. Худайев , И., & Тожиев , Ш. (2023). БОҒ ВА УЗУМЗОРЛАРДА ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ЖОРИЙ ҚИЛИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Talqin Va Tadqiqotlar, 1(1). извлечено от <https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/220>
15. Фазлиев Жамолитдин, Тожиев Шерзод, & Холиқов Шарифбек. (2024). СПОСОБЫ ЭКОНОМИИ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В САДАХ. Uz-Conferences, 1(1), 520–525. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/110>
16. J.Sh.Fazliyev., Sh.M.Tojiev., Sh.D.Khalikov. (2024). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. Uz-Conferences, 1(1), 504–509. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/107>
17. I.J.Xudayev, I.J.Xudayev, & Sh.M.Tojiyev. (2024). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G'O'ZANI SUG'ORISH TEXNOLOGIYASI. Uz-Conferences, 1(1), 514–519. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/109>
18. Khamidov, M. K., Juraev, U. A., Buriev, X. B., Juraev, A. K., Saksonov, U. S., Sharifov, F. K., & Isabaev, K. T. (2023, February). Efficiency of drip irrigation technology of cotton in saline soils of Bukhara oasis. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1138, No. 1, p. 012007). IOP Publishing.
19. Sharifov Firdavs, & Mirzamurotov Mirshod. (2024). G'O'ZA O'SIMLIGINI YETISHTIRISHDA SUV TEJAMKOR SUG'ORISH TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH. Uz-Conferences, 1(1), 461–464. Retrieved from <https://uz-conference.com/index.php/p/article/view/98>
20. Sattorovich, S. U., & Qobil o'g'li, S. F. (2022). BUG 'DOY O 'SIMLIGI VA DONINING XALQ XO 'JALIGIDA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.